Karate sport turining madaniyati.....	556
<b>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li</b>	
Ko'ngillilik faoliyatining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....	560
<b>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</b>	
Talaba-yoshlarni milliy kurash mashg'ulotlariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish .....	563
<b>Zaynobidinov Dilshodbek Qobilovich</b>	
Raqamli ta'lim muhitida o'smirlarning o'zini anglash jarayoni va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri.....	567
<b>Zufarova Yulduzxon Muxiddin qizi</b>	
Интерпретация биологических терминов на русском языке .....	570
<b>Абдуллаева Нигора Курбановна</b>	
Жанровые особенности рассказа-антиутопии В. С. Маканина "Однодневная война".....	574
<b>Дмитрий Валерьевич Пупонин</b>	
Мифопоэтика и аксиологические функции архетипа матери-хранительницы в повестях В. Г. Распутина "Последний срок" и "Прощание с матёрой" .....	578
<b>Коржова Шахло Одилжоновна</b>	
Методологические аспекты изучения адаптаций Песчанковых (Gerbillidae) к аридным условиям: анализ классических и современных исследований .....	585
<b>Нурова Хикоят Кенжаевна</b>	
К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков ....	590
<b>Рахимова Мухайё Акмаловна</b>	



# TURIZM SOHASI TALABALARINING INGLIZ TILIDAGI KASBIY DISKURSIDA UCHRAYDIGAN KOMMUNIKATIV TO'SIQLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI



Usmonova Zilola Javlon qizi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash  
 muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti  
 Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Orcid: 0009-0001-8294-3058

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm sohasi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy diskursida uchraydigan kommunikativ to'siqlar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida talabalarning kasbiy muloqot jarayonida duch keladigan lingvistik, psixologik, sotsiomadaniy va pragmatik muammolar tahlil qilingan. Ingliz tilida kasbiy muloqotni samarali tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanib, ularni kamaytirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, rolli o'yinlar va autentik materiallardan foydalanishning afzalliklari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak turizm mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning ilmiy yangiligi kommunikativ to'siqlarning turizm ta'limi nuqtai nazaridan tizimli tasniflanishi hamda ularni bartaraf etishning amaliy mexanizmlari taklif etilganligi bilan izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** turizm ta'limi, kasbiy diskurs, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ to'siqlar, lingvistik to'siqlar, madaniyatlararo muloqot, nutq faoliyati, interaktiv metodlar, kasbiy kommunikatsiya.

**Abstract:** This article investigates communicative barriers encountered by tourism students in English professional discourse and explores effective mechanisms for overcoming them. The study analyzes linguistic, psychological, socio-cultural, and pragmatic factors that influence the quality of professional communication in tourism-related contexts. The main causes of communication difficulties are identified, and practical strategies for reducing their impact are proposed. Particular attention is paid to communicative language teaching, interactive learning methods, role-play activities, and the use of authentic materials in foreign language instruction. The findings contribute to the development of professional communicative competence and improve the effectiveness of English language education for future tourism specialists. The scientific novelty of the study lies in the comprehensive classification of communicative barriers and the development of practical mechanisms for overcoming them within tourism-oriented language education.

**Key words:** tourism education, professional discourse, English language, communicative competence, communicative barriers, intercultural communication, language difficulties, interactive methods, professional communication, tourism students.

**Аннотация:** В статье исследуются коммуникативные барьеры, возникающие в профессиональном английском дискурсе студентов туристического направления, а также механизмы их преодоления. Проанализированы лингвистические, психологические, социокультурные и прагматические факторы, влияющие на качество профессионального общения будущих специалистов сферы туризма. Определены основные причины возникновения коммуникативных трудностей и предложены эффективные пути их устранения. Особое внимание уделено использованию коммуникативного подхода, интерактивных методов обучения, ролевых игр и аутентичных материалов. Результаты исследования направлены на развитие профессиональной коммуникативной компетенции студентов и повышение эффективности обучения английскому языку. Научная новизна работы заключается в комплексном анализе коммуникативных барьеров и разработке практических рекомендаций по их преодолению в системе туристического образования.

**Ключевые слова:** туристическое образование, профессиональный дискурс, английский язык, коммуникативная компетенция, коммуникативные барьеры, межкультурная коммуникация, языковые трудности, интерактивное обучение, профессиональное общение, туризм.

## KIRISH

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro turizm bozori sharoitida xizmatlar sifati, mijozlar bilan samarali muloqot o'rnatish, xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar olib borish va madaniyatlararo kommunikatsiyani yo'lga qo'yishda ingliz tili muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli turizm sohasi uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida talabalarining ingliz tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlar asosida malakali kadrlar tayyorlash hamda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim muassasalarida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va talabalarining xorijiy tillarni puxta egallashini ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan<sup>[1]</sup>. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi bevosita bo'lajak mutaxassislarning chet tillarida erkin kasbiy muloqot qila olish darajasiga bog'liqdir.

Shuningdek, mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlash hamda xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyalashuvni jadallashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham yoshlarning xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishi, xalqaro ta'lim va mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan<sup>[2]</sup>. Bu esa turizm yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini nafaqat umumiy muloqot vositasi, balki kasbiy faoliyatning asosiy instrumenti sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Turizm sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning ish jarayoni bevosita xorijiy sayyohlar bilan muloqot qilish, ekskursiyalar tashkil etish, mehmonxona va transport xizmatlarini taqdim etish, turistik mahsulotlarni targ'ib qilish hamda xalqaro hamkorlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Bunday vaziyatlarda kommunikativ kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi turli kommunikativ to'siqlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Xususan, lug'at boyligining cheklanganligi, grammatik xatolar, talaffuzdagi kamchiliklar, nutqiy xavotir, madaniyatlararo tafovutlarni yetarlicha bilmaslik hamda kasbiy terminologiyani o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar muloqot samaradorligini pasaytiruvchi omillar hisoblanadi.

Bugungi kunda xorijiy til ta'limida kommunikativ yondashuv ustuvor metod sifatida qaralayotgan bo'lsa-da, turizm sohasi talabalarining kasbiy diskursida uchraydigan kommunikativ to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan ta'lim muhiti yaratish, autentik materiallardan foydalanish, rolli o'yinlar va interaktiv metodlarni qo'llash orqali talabalarining kommunikativ faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda turizm sanoatining jadal rivojlanishi, xalqaro sayyohlar oqimining ortishi hamda xizmat ko'rsatish sohasida ingliz tilining global kommunikatsiya vositasi sifatidagi mavqeyining mustahkamlanishi turizm yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasini dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylantirdi. Zamonaviy tadqiqotlarda xorijiy tilni o'qitishning asosiy maqsadi grammatik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki talabalarni real kasbiy vaziyatlarda samarali muloqot qila oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashga qaratilishi lozimligi ta'kidlanmoqda.

Bugungi kunda turizm sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar mehmonxona, transport, ekskursiya xizmati, restoran biznesi va turistik agentliklarda turli millat vakillari bilan muntazam muloqot olib boradilar. Shu sababli kasbiy faoliyatda nafaqat lingvistik bilimlar, balki madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, xorijiy tilni bilish darajasi yuqori bo'lgan talabalar ham kasbiy muloqot davomida kommunikativ qiyinchiliklar uchrashi mumkin. Bunday holatlar ko'pincha madaniy tafovutlar, nutq strategiyalarini to'g'ri tanlay olmaslik, kasbiy terminologiyani yetarli darajada egallama-ganlik yoki psixologik omillar bilan izohlanadi.

So'nggi yillarda ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o'qitish (English for Specific Purposes – ESP) konsepsiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar turizm sohasi talabalarining ehtiyojlariga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda. Zamonaviy metodik yondashuvlarga ko'ra, ta'lim jarayonida autentik materiallardan foydalanish, mehmonlarni kutib olish, ekskursiya o'tkazish, mehmonxona rezervatsiyasi yoki mijozlar bilan muzokara olib borish kabi real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish talabalarining kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalaridan foydalanish xorijiy tilni amaliy o'rganish samaradorligini kuchaytirishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kommunikativ to'siqlarni tasniflashga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda ular asosan lingvistik, psixologik, pragmatik va sotsiomadaniy guruhlariga ajratiladi. Lingvistik to'siqlar talabalar lug'at boyligining yetarli



emasligi, kasbiy terminlarni noto'g'ri qo'llashi, grammatik xatolar va talaffuzdagi kamchiliklar bilan bog'liq. Psixologik to'siqlar esa nutqiy xavotir, xato qilishdan qo'rqish, auditoriya oldida erkin gapira olmaslik hamda o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi natijasida yuzaga keladi. Pragmatik to'siqlar muloqot vaziyatiga mos til vositalarini tanlay olmaslik bilan tavsiflansa, sotsiomadaniy to'siqlar turli madaniyat vakillarining qadriyatlarini, urf-odatlarini va kommunikativ xulq-atvori o'rtasidagi tafovutlardan kelib chiqadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda ham turizm sohasi uchun xorijiy til kompetensiyasining ahamiyati alohida ta'kidlanmoqda. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, turizm xizmatlari sifatini oshirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashda kommunikativ kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida turizm yo'nalishi talabalarini o'qitishda kommunikativ yondashuv, loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etilmoqda <sup>[4]</sup>.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy diskursida uchraydigan kommunikativ to'siqlarni o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularni O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida sharoitida kompleks ravishda tahlil qilish va bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot turizm sohasi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy diskursida uchraydigan kommunikativ to'siqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogika, lingvistika, psixologiya va kommunikativ til o'qitish nazariyalarining zamonaviy yondashuvlariga tayanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ kompetensiya nazariyasi, kasbiy yo'naltirilgan xorijiy til ta'limi (ESP – English for Specific Purposes) konsepsiyasi hamda madaniyatlararo kommunikatsiya tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida nazariy va empirik metodlarning o'zaro uyg'unlashgan tizimidan foydalanildi. Nazariy bosqichda mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Xususan, kommunikativ kompetensiya, kasbiy diskurs, turizm ta'limi va madaniyatlararo muloqot masalalariga bag'ishlangan ilmiy manbalar qiyosiy-tahlilijihatdan o'rganildi. Mazkur usul tadqiqot etilayotgan muammoning nazariy asoslarini aniqlash va mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish imkonini berdi.

Empirik tadqiqot bosqichida kuzatish, so'rovnomalar, suhbat va pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi. Turizm yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning ingliz tilidagi kasbiy muloqot jarayonlari kuzatilib, ularda uchraydigan kommunikativ qiyinchiliklar qayd etildi. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan anonim so'rovnomalar orqali ingliz tilida muloqot qilish jarayonida duch kelinadigan muammolar, ularning sabablari va talabalarning o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari aniqlandi. Shuningdek, ingliz tili o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasida kommunikativ to'siqlarning pedagogik omillari ham tahlil qilindi.

Tadqiqotda olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda tavsifiy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Aniqlangan kommunikativ to'siqlar lingvistik, psixologik, pragmatik va sotsiomadaniy guruhlariga ajratilib, ularning kasbiy diskursga ta'siri baholandi. Bundan tashqari, talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarning samaradorligi ham tahlil qilindi.

Tadqiqotning ishonchligini ta'minlash maqsadida bir-birini to'ldiruvchi bir nechta metodlardan foydalanildi. Olingan natijalar nazariy manbalar va amaliy kuzatishlar asosida o'zaro solishtirildi hamda ilmiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot metodologiyasi kommunikativ yondashuv tamoyillariga asoslangan bo'lib, talabalarning real kasbiy vaziyatlarda ingliz tilida samarali muloqot olib borish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi <sup>[6]</sup>.

Shuningdek, tadqiqotda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, rolli o'yinlar va autentik materiallardan foydalanishning kommunikativ to'siqlarni kamaytirishdagi ahamiyati o'rganildi. Ushbu metodlar orqali talabalarning kasbiy nutq faolligini oshirish, muloqot jarayonidagi psixologik to'siqlarni bartaraf etish hamda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari baholandi <sup>[7]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida turizm sohasi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy diskursida uchraydigan kommunikativ to'siqlar har tomonlama tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalarning aksariyati ingliz tilining nazariy asoslarini ma'lum darajada o'zlashtirgan bo'lsalar-da, real kasbiy vaziyatlarda muloqot olib borishda qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayniqsa, xorijiy turistlar bilan suhbatlashish, mehmonxona xizmatlarini

taqdim etish, ekskursiya jarayonlarini tashkil etish hamda mijozlarning murojaatlariga javob berish kabi vaziyatlarda kommunikativ to'siqlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Tahlillar natijasida kommunikativ to'siqlar to'rtta asosiy guruhga ajratildi: lingvistik, psixologik, sotsiomadaniy va pragmatik to'siqlar. Lingvistik to'siqlar orasida kasbiy terminologiyaning yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi, lug'at boyligining cheklanganligi, grammatik xatolar va talaffuzdagi kamchiliklar asosiy o'rinni egalladi. Ko'plab talabalar turizm sohasiga oid maxsus terminlarni bilsalar ham, ularni real muloqot jarayonida to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi.

Psixologik to'siqlar ham kommunikativ samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Talabalarning bir qismi ingliz tilida erkin muloqot qilish jarayonida xato qilishdan qo'rqishi, nutqiy xavotirga berilishi va o'z fikrlarini erkin ifodalashda ikkilanishi ma'lum bo'ldi. Bu holat ayniqsa auditoriya oldida nutq so'zlash yoki xorijiy mehmonlar bilan bevosita muloqot qilish vaziyatlarida kuchayishi kuzatildi.

Sotsiomadaniy to'siqlar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar ingliz tilida muloqot qilayotgan bo'lsalar-da, turli xalqlarning kommunikativ madaniyati, etiketi va xulq-atvor me'yorlari haqida yetarli bilimga ega emaslar. Natijada ayrim hollarda muloqot mazmuni to'g'ri yetkazilgan bo'lsa-da, uning madaniy jihatdan mos kelmasligi kommunikativ samarasizlikka olib kelishi mumkin.

Pragmatik to'siqlar esa talabalarning kommunikativ vaziyatga mos nutq strategiyalarini tanlashda qiyinchilikka duch kelishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Xususan, rasmiy va norasmiy muloqot uslublarini farqlash, mijozlarga murojaat qilish shakllarini tanlash va xizmat ko'rsatish etiketi qoidalariga rioya etishda ayrim kamchiliklar kuzatildi.

Tadqiqot davomida kommunikativ yondashuv, rolli o'yinlar, keys-stadi, autentik materiallar va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishning samaradorligi ham baholandi. Natijalar ushbu metodlar talabalarning nutqiy faolligini oshirish, kasbiy lug'at boyligini kengaytirish va muloqot jarayonidagi psixologik to'siqlarni kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, xorijiy til muhiti bilan muntazam aloqada bo'lishiga va ingliz tilidagi kasbiy muloqot tajribasini kengaytirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari turizm yo'nalishidagi talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, turizm sohasi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy diskursida uchraydigan kommunikativ to'siqlar ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu to'siqlar asosan lingvistik, psixologik, sotsiomadaniy va pragmatik omillar bilan bog'liq bo'lib, kasbiy muloqot samaradorligini pasaytiradi.<sup>[8]</sup>

Tadqiqot davomida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar kommunikativ to'siqlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Xususan, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, autentik materiallardan foydalanish, loyiha asosida o'qitish va raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llash talabalarning kasbiy nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Turizm yo'nalishidagi ingliz tili fanlari mazmuniga kasbiy kommunikatsiyaga oid amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish lozim.
2. Ta'lim jarayonida mehmonxona, restoran, turistik agentlik va ekskursiya faoliyatiga oid real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish tavsiya etiladi.
3. Talabalarning kasbiy terminologiya bo'yicha bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv modullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
4. Madaniyatlararo kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirish uchun xorijiy davlatlarning turizm madaniyati va xizmat ko'rsatish etiketi bo'yicha alohida mashg'ulotlarni joriy etish zarur.
5. Ingliz tilidagi kasbiy muloqotni rivojlantirish maqsadida raqamli platformalar, virtual simulyatsiyalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish lozim.
6. Talabalarning nutqiy xavotirini kamaytirish uchun interaktiv metodlar va jamoaviy ishlash shakllaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.



Umuman olganda, turizm sohasi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy diskursida uchraydigan kommunikativ to'siqlarni bartaraf etish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda turizm xizmatlari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni va strategik yo'nalishlari.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda xorijiy tillarni o'qitish va baholash tizimini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
4. United Nations World Tourism Organization. World Tourism Barometer. Madrid: UN Tourism, 2024.
5. Creswell, J.W., Creswell, J.D. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. 6th Edition. Thousand Oaks: SAGE Publications, 2023.
6. Mackey, A., Gass, S.M. Second Language Research: Methodology and Design. New York: Routledge, 2022. 416 p.
7. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
8. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2013. – 304 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.